

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA
ADABIYOTI UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR
BERUVCHI DSc.03/30.12.2019.Fil.19.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA
ADABIYOTI UNIVERSITETI**

TURSUNOV RUSTAM MIRSHAXIDOVICH

**O‘ZBEK ADABIYOTIDA FUZULIYGA IZDOSHLIK (TATABBU’
VA TAZMINLAR ASOSIDA)**

10.00.02 – O‘zbek adabiyoti

**FILOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

UO‘K: 821.512.133 :82 - 1

КБК: 83.3(0)9 (5 Uzb)

T - 95

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по филологическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)
on philological sciences**

Tursunov Rustam Mirshaxidovich

O‘zbek adabiyotida Fuzuliyga izdoshlik (tatabbu’ va tazminlar asosida).....3

Tursunov Rustam Mirshakhidovich

The sequence of Fusuli in Uzbek literature (based on tatabbu and tezmins).....26

Турсунов Рустам Миршахидович

Последовательность Фузули в узбекской литературе (на основе татаббу и тазминов).....48

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ

List of published works54

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA
ADABIYOTI UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR
BERUVCHI DSc.03/30.12.2019.Fil.19.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA
ADABIYOTI UNIVERSITETI**

TURSUNOV RUSTAM MIRSHAXIDOVICH

**O‘ZBEK ADABIYOTIDA FUZULIYGA IZDOSHLIK (TATABBU’
VA TAZMINLAR ASOSIDA)**

10.00.02 – O‘zbek adabiyoti

**FILOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2021.4.PhD/Fil2075 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti da bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasi (www.jdpu.uz) va "ZiyoNet" Axborot ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Yusupova Dilnavoz Rahmonovna
filologiya fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Erkinov Aftondil Sadirxonovich
filologiya fanlari doktori, professor

Karimova Farida Isoqovna
filologiya fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

O'zR FA Alisher Navoiy nomidagi Davlat adabiyot muzeyi

Dissertatsiya himoyasi Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi **DSc.03/30.12.2019.Fil.19.01** raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil "___" _____ soat _____ dagi majlisida bo'lib o'tadi.

(Manzil: 100100, Toshkent shahri, Yusuf Xos Hojib ko'chasi, 103-uy. Tel: (+99871) 281-41-44, faks: 281-427-44, e-mail: www.tsuull.uz) e-mail: monitoring@navoiy-uni.uz).

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (___ -raqami bilan ro'yxatga olingan).

(Manzil: 100100, Toshkent shahri, Yusuf Xos Hojib ko'chasi, 103-uy. Tel: (+99871) 281-41-44, faks: 281-427-44, e-mail: www.tsuull.uz) e-mail: monitoring@navoiy-uni.uz).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil "___" _____ kuni tarqatildi.
(2025 -yil "___" _____ dagi _____ raqamli reyestr bayonnomasi).

Sh.S.Sirojiddinov

Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash raisi,
filol.f.d., akademik

Q. U. Pardayev

Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash kotibi,
filol.f.d., professor.

N.A. Jabborov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
qoshidagi Ilmiy seminar raisi,
filol.f.d., professor.

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon adabiyotshunosligida adabiy an'ana va novatorlik masalasi muhim yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Badiiy hodisalarni yirik ko'rinishlarda tadqiq etuvchi mazkur soha XXI asrda yanada jadal sur'atlar bilan rivojlanib, fan oldiga yangi muammolarni ko'ndalang qo'ymoqda. Ana shunday muammolardan biri she'riyatda adabiy ta'sirlanish, izdoshlik orqali original asarlar yaratish mahoratini ilmiy tadqiq etishdir. Mumtoz she'riyatda qo'llangan tazmin, tatabbu' va taxmis kabi adabiy hodisalar va badiiy janrlarning yuzaga kelishi badiiy adabiyotda an'anaviylikning rivoji sifatida baholanib, bu borada ko'plab tadqiqotlar yaratilmoqda.

Dunyo adabiyotshunosligida badiiy san'atlarning ilmiy asoslari va unga yondosh hodisalar tahlili she'riy asarlarda, xususan, g'azal janrida namuna – o'xshatish – hosila yaxlitligining o'ziga xos tadqiqot obyekti markazini tashkil etadi. Mazkur sohalarning yuzaga kelishi fanda va she'riyatda qo'llangan mumtoz badiiy san'atlarning ilmiy asoslarini yoritishga doir yondashuvlar bilan bog'liqdir. O'zidan oldin ijod qilgan salaflarning eng mashhur asarlari poetik xususiyatlarini o'rganish har doim ham adabiyotshunoslik fanlarining tadqiq manbai bo'lib kelgan. Xususan, zamonaviy shoirlar ijodida ham shu yo'sinda an'ana va izdoshlik masalalarini o'rganish zarurligini ko'rsatadi.

O'zbek she'riyatida qo'llangan tazmin va tatabbu'larning badiiy janr turi sifatida o'rganilishi, ularning tahlil ko'rinishlari, jumladan, badiiy matn tadqiqiga bag'ishlangan ishlarda yaqqol ko'zga tashlanadi. O'zbekistonda bugun fuzuliyshunoslik, Fuzuliy ijodiga murojaat va munosabatlar yangi bosqichga ko'tarilayotganini kuzatish mumkin. Ko'p asrlik adabiyotimiz tarixida Fuzuliy ijodidan ta'sirlanib, uning mashhur asarlariga tazmin va tatabbu'lar bog'langani ikki xalqlar orasidagi adabiy aloqalarning ancha qadimiy ekanligini ko'rsatadi. Bu esa shoir ijodini poetik tadqiq etish dolzarb masalalardan ekaniga dalildir. O'zbekistonda mamlakat strategik rivojining bosh omillari belgilanar ekan, tarixiy, madaniy, adabiy va san'at asarlari, xususan, mumtoz va zamoaviy adabiyot namunalarini o'rganish, tadqiq etish, ulardagi milliy va madaniy merosimizga oid g'oyalarni chuqur va atroflicha tahlil qilish yosh avlod ma'naviy kamolotida katta ahamiyat kasb etadi. Jamiyatda yuz berayotgan har qanday islohot, avvalo, badiiy adabiyot va madaniyatda o'z ifodasini topadi, zero, “adabiyot va san'atga, madaniyatga e'tibor – bu, avvalo, xalqimizga e'tibor, kelajagimizga e'tibor”dir¹.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 16-fevraldagi PF-4958-son “Oliy o'quv yurtidan keyingi ta'limni yanada takomillashtirish to'g'risida”, 2001-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son “O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida”, 2019-yil 21-oktabrdagi PF-5850-son “O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi farmonlari, 2017-yil 13-sentyabrdagi PQ-3271-son “Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish

¹ Мирзиёев Ш.М. Адабиёт ва санъат, маданиятни ривожлантириш – халқимиз маънавий оламини юксалтиришнинг мустаҳкам пойдеворидир // Халқ сўзи. – Т., 2017 йил 4 август.

tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ib qilish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to'g'risida", 2018-yil 5-apreldagi PQ-3652-son "O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 3-avgustdagi O'zbekiston ijodkor ziyolilari vakillari bilan uchrashuvdagi ma'ruzasi, 2020-yil 20-mayda Toshkent shahridagi Adiblar xiyoboniga tashrifi chog'ida adabiyotning ta'sir kuchini oshirish bo'yicha topshiriqlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Dissertatsiya "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirish" ustuvor yo'nalishi doirasida amalga oshirilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Muhammad Fuzuliy ijodi bugungi kunga qadar jahon ilmiy jamoatchiligi tomonidan katta qiziqish bilan o'rganilgan va o'rganilmoqda. Y.E. Bertels², J.H.Purgstall³, S.Mumtaz⁴, E.J.Gibb, H.Odelli⁵, S.Huri kabi rus va Yevropa olimlari, H.Arasli, M.J. Pashayev, J.Nagiyeva⁶ kabi ozarbayjon olimlarining tadqiqot, maqola, asar nashrlari bilan bog'liq ishlari shular jumlasidandir.

Ozarbayjon mustaqilligi davrida (1991-yildan boshlab) Muhammad Fuzuliy ijodining tadqiqi yangi bosqichga ko'tarildi. Bu davrda Fuzuliy merosini chuqur o'rganish, ilmiy-nazariy asosda tahlil qilish va keng auditoriyaga yetkazish bo'yicha bir qator muhim asarlar yaratildi. Xususan, G. Əliyeva-Kəngərlining "Azərbaycan füzulışünaslığının qaynaqları"⁷, M.C.Cəfərovning "Füzuli düşündürür"⁸, "Müstəqillik dövrü Azərbaycan ədəbiyyatı"⁹ kabi tadqiqot va to'plamlarda Fuzuliy merosining yangi talqinlari va tadqiqotlari haqida ma'lumotlar berilgan.

² Бертельс. Е. Э. Низами и Фузули. – М.: Восточная литература, 1962.

³ Hammer-Purgstall, Joseph von. Geschichte der osmanischen Dichtkunst. Erster Band. – Pesth: C. A. Hartleben, 1836.

⁴ Füzulinin əsərləri / tərtib edəni və ön sözü müəllifi Salman Mümtaz. – Bakı: Azərneşr, 1924.

⁵ Gibb J. Ottoman Literature: The Poets and Poetry of Turkey. – New York: Dodd, Mead & Company, 1901; Odelli H. A Study of the Poet Fuzuli with Special Reference to His Turkish, Persian and Arabic Divans. – Durham University, 1970.

⁶ Huri S. Leyla and Mejnun / Translated from the original by Sofi Huri. – London: Oxford University Press, 1985; Füzuli Məhəmməd. Əsərləri / Tərtib və redaktə edən: Həmid Araslı. – Bakı: Azərbaycan, 2015-2020, 6 cild; Araslı H. Füzuli'nin "Bəngü-Badə" Satirik-Allegorik Dostonu: Tahlil və Şərh. – Bakı: Azərbaycan, 2019; Araslı H. Böyük Azərbaycan şairi Füzuli. – Bakı: Elm, 2018; Araslı H. Füzuli sənətkarlığı. – Bakı: Azərbaycan, 2022; Binnətova Almaz Ülvü. Füzuli və özbək ədəbiyyatı / Türk Mədəniyyət İrsi Fondunun nəşri. – Bakı: Zərdabi nəşriyyatı, 2024; Nəğiyeva C. Nəvai və Azərbaycan ədəbiyyatı (XV–XIX əsrlər). – Bakı: Elm, 1990; Nəğiyeva C. Əlişir Nəvainin yaradıcılığı Azərbaycan ədəbiyyatşünaslığında // Məqalələr toplusu. – Bakı: Elm və Təhsil, 2009.

⁷ Əliyeva-Kəngərli, Gülşən. Azərbaycan füzulışünaslığının qaynaqları. – Bakı: Azərbaycan, 2017.

⁸ Cəfərov M. C. Füzuli düşündürür. – Bakı: Elm və təhsil, 2019.

⁹ Həbibbəyli İsa. Müstəqillik dövrü Azərbaycan ədəbiyyatı. – Bakı: Elm və təhsil, 2016, 2 cild.

Mustaqillik davrida Fuzuliy asarlari to‘liq va tanqidiy matn asosida 6 jildda nashr etildi¹⁰. Bu nashrda shoirning barcha muhim asarlari, jumladan, g‘azallar, qasida va dostonlari jamlangan.

Muhammad Fuzuliyning ijodi o‘zbek adabiyotida ham o‘ziga xos ahamiyatga ega bo‘lib, bu mavzu tarixiy va madaniy omillar orqali adabiyotshunoslikda har tomonlama o‘rganilgan va o‘rganilmoqda. Fuzuliyning asarlari va u tomonidan yaratgan badiiy xazina o‘zbek adabiyotiga chuqur ta’sir ko‘rsatgan va bu borada ko‘plab olimlar o‘z tadqiqotlarini olib borganlar. Fuzuliyning hayoti va ijodi haqida dastlabki fikrlar XVII asr boshlariga oid asarlarda, jumladan, Mutribiy Samarqandiyning “Tazkirat ush-shuaro” asarida paydo bo‘lgan¹¹. XX asrning boshlarida V. Mahmud o‘zining “Fuzuliy Bag‘dodiy” maqolasi bilan Fuzuliy ijodini ilmiy jihatdan o‘rganish ishlarini boshladi¹². Shuningdek, Abdurauf Fitrat¹³, Abdulhamid Cho‘lpon¹⁴, V. Abdullayev¹⁵, V. Zohidov¹⁶, T. Jalolov¹⁷, X. Rasul¹⁸, A. Hayitmetov¹⁹, A. Qayumov²⁰, H. Muhammadxo‘jayev²¹, I. Haqqul²², E. Ochilov²³, M. Po‘latova²⁴, F. Karimova²⁵ va Y. Abdulhakimova²⁶ kabi olimlar ham Fuzuliyning ijodini turli jihatlardan tadqiq qilganlar. Lekin mazkur tadqiqotlarda Fuzuliy ijodiga o‘zbek adabiyotidagi izdoshlik tazmin va tatabbu‘lar asosida maxsus tadqiq etilgan emas. Ushbu dissertatsiya ana shu vazifani o‘z ichiga olganligi bilan boshqa ilmiy tadqiqotlardan farq qiladi.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq “O‘zbek mumtoz adabiyoti va matnshunoslikning dolzarb muammolari”

¹⁰ Fuzuli M. Əsərləri: 6 cilddə. – Bakı: Şərq-Qərb, 2005.

¹¹ Алишер Навоий ва Муҳаммад Фузулий: ўзбек-озарбайжон адабий алоқалари масалалари. Улуслараро конференс материаллари. – Т., 2024. – Б. 14.

¹² Махмуд В. Фузулий Бағдодий (Юбилей муносабати-ла) // Маориф ва ўқитғувчи, 1925. Қаранг: <https://ziyouz.uz/matbuot/jadid-matbuoti/vadud-mahmud-fuzuliy-bagdodiy-1925/>

¹³ Фитрат А. XVI асрдан сўнгра ўзбек адабиётига умумий бир қараш. Танланган асарлар. II жилд. – Т.: Маънавият, 2000. – Б. 59.

¹⁴ Quronov D. Fuzuliy Cho‘lpon nigohida // Turkiy xalqlar adabiyoti: adabiy ta’sir va tarjima masalalari. Ilmiy-amaliy anjuman materiallari. – Т., 2024. – В. 111–117.

¹⁵ Алишер Навоий ва Муҳаммад Фузулий: ўзбек-озарбайжон адабий алоқалари масалалари. Улуслараро конференс материаллари. – Т., 2024.

¹⁶ O‘sha asar.

¹⁷ Фузулий. Девон / Нашрга тайёрловчилар: Т. Жалолов, М. Муинзода. – Т., 1958.

¹⁸ Х. Расулов. Муҳаммад Фузулий (Сўзбоши) // Муҳаммад Фузулий. Асарлар. Икки жилдлик. 1-жилд. Девон. – Т.: Ф. Фулом, 1968.

¹⁹ Ҳайитметов. А. Алишер Навоийнинг адабий-танқидий қарашлари. – Т., 1959. – Б. 116, 168–194.

²⁰ Қаяумов А. Қўқон адабий муҳити (XVIII–XIX асрлар). – Т.: ЎзФА, 1961.

²¹ Муҳаммадхўжаев Х. Фузулий ва ўзбек адабиёти: Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Т., 1972.

²² Qarang: <https://kh-davron.uz/kutubxona/jahon/turk/ibrohimi-haqqul-marifat-la-boqiy-soz-fuzuliy.html>

²³ Очилов Э. Туркий халқларнинг севимли шoirи (Фузулий таваллудининг 515 йиллигига) // Тил ва адабиёт таълими, 2013. – № 2.

²⁴ Пулатова. М. Р. Шарқ мумтоз адабиётида “Арбаъин” ёзиш анъаналари (Жомий, Навоий ва Фузулий асарлари мисолида): Филол. фан. б. фалс. док. дисс. ... автореф. – Т., 2020.

²⁵ Karimova F. Sharq adabiyotida debocha va uning poetikasi: Filol. fan. d-ri ... diss. – Farg‘ona, 2023.

²⁶ Абдулҳакимова Ю. Алишер Навоий ва Муҳаммад Фузулий “Лайли ва Мажнун” дostonларининг қиёсий таҳлили: Филол. фан. б. фалс. док. ... дисс. – Т., 2022.

mavzusi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi o‘zbek adabiyotida Muhammad Fuzuliyga izdoshlik masalasini tekshirish, g‘azallarga bog‘langan tatabbu’ va tazminlarning badiiy xususiyatlarini ochib berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

o‘zbek adabiyotida Fuzuliy an‘analarini davom ettirgan ijodkorlarning asarlarini tatabbu’ va tazminlar misolida tahlil qilish, an‘anaviylikning novatorlikka asos bo‘lishini aniqlash;

Lutfiy va Navoiy lirikasining Ozarbayjon she‘riyatiga ta‘siri, xususan, Fuzuliy ijodida g‘azalnavislikda izdoshlik masalasi, tatabbu’ va tazmin san‘atlarining rivojlanishiga qo‘shgan hissasini ochib berish;

o‘zbek shoirlari (Mashrab, Amiriy, G‘oziy, Nodira, Uvaysiy, Xon, Muqimiy, Furqat, Nishotiy, Munis, Ogahiy, Pahlavonquli Ravnaq, Avaz O‘tar, Cho‘lpon, Habibiy, Chustiy) ijodiga Fuzuliy lirikasining ta‘sirini o‘rganib, ular yaratgan muxammas, tazmin va tatabbu‘lar poetikasini qiyosiy tadqiq qilish;

Fuzuliy ijodiga izdoshlik masalasining o‘rganilish qamrovini kengaytirish, zamonaviy o‘zbek adabiyoti namunalari (Erkin Vohidov, Jamol Kamol, Dilorom Ergasheva) orasidan Fuzuliy g‘azallariga bog‘langan tatabbu’ va tazminlarni tadqiq qilish, salaflar ijodiga murojaat badiiy ijodda mahorat maktabi vazifasini o‘tashi bilan bog‘liq ma‘lumotlarni dalillashdan iborat.

Tadqiqotning obyektini o‘zbek adabiyotida Fuzuliy ijodiga bag‘ishlangan tatabbu’, tazmin va taxmislar tashkil etadi.

Tadqiqotning predmeti o‘zbek adabiyotida Fuzuliy ijodiga bag‘ishlangan tatabbu’, nazira va taxmislar, ularning badiiy, poetik xususiyatlarini ochib berish, Fuzuliyga izdoshlik masalasini ilmiy asoslashdan iborat.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida qiyosiy tahlil, zidlash, tasniflash, kontekstual, struktural tahlil usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

O‘zbek adabiyotshunosligida ilk marta Muhammad Fuzuliy ijodining manbalari monografik planda tekshirilib, turkiy shoirlar: Lutfiy va Alisher Navoiy she‘riyatining Fuzuliy ijodiga ta‘siri masalasi ozarbayjon shoirining “Sening” radifli taxmisi, “Ashraqt...” g‘azali va “Besh emas” tatabbu’si tahlili orqali ochib berilgan;

Muhammad Fuzuliy ijodi *o‘zaro ta‘sir* va *aks ta‘sir* tamoyillari asosida tekshirilib, Alisher Navoiyga Fuzuliy va Fuzuliyga o‘zbek shoirlari yozgan she‘riyat namunalari an‘anaviylikning novatorlikka asos bo‘lgani aniqlangan va ushbu izdoshlik masalasi mumtoz she‘riyatdagi tazmin turlari: bir misra yoki bayt asosidagi tazmin; tazmin-taxmisning rivojlanishiga hissa qo‘shgani misollar asosida ilmiy dalillangan;

O‘zbek adabiyotida Fuzuliyga izdoshlik asosida yaratilgan ijod namunalari *tatabbu’*, *tazmin* va *taxmislar* asosida xonliklar – Qo‘qon, Buxoro va Xiva adabiy muhitlari kesimida dalillanib, Fuzuliydan ta‘sir lanib yozilgan 33 ta she‘r tahlil qilingan va ilmiy asoslangan;

XX-XXI asr o‘zbek shoirlari (Cho‘lpon, Habibiy, Chustiy, E. Vohidov, J. Kamol, D. Ergasheva)ning Fuzuliyga bog‘lagan tazmin, tatabbu’ va

taxmislari poetikasi vazn, qofiya va badiiy san'atlar asosida ochib berilgan.

Tadqiqotning amaliy natijasi quyidagilardan iborat:

Fuzuliy boy ijodiy merosini targ'ib va tashviq qilish bugungi kunda dolzarb vazifa ekanligi, uning she'rlariga bitilgan tatabbu' va tazminlarning badiiy qimmatini, shoir she'rlarida ilgari surilgan umumbashariy g'oyalarning tadqiqi jamiyatda ma'nan yetuk shaxsni kamol toptirishda muhim ahamiyat kasb etishi asoslangan;

Fuzuliy ijodiga bog'langan tatabbu', nazira va taxmislar, ularning badiiy, poetik xususiyatlarini ochib berish, Fuzuliyga izdoshlik masalalari tadqiqi natijasida o'zbek adabiyotshunosligi va adabiy tanqidchiligi tarixi uchun zarur ilmiy tavsifa va takliflar ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarning ishonchliligi tadqiqot metodologiyasi va metodikasi uyg'unligi, qo'yilayotgan muammoning dolzarbligini, yangi va muhim vazifalarning hal etilganligi, tadqiqotga jalb qilingan ishonchli manbalar asosida qo'llangan yondashuv usullari, keltirilgan tahlil, xulosa, taklif va tavsiyalarning amaliyotga joriy etilganligi, lisoniy dalillar talqinining nazariy asoslanganligi, tadqiqotning himoyaga olib chiqilayotgan holatlari va xulosalarning yangiligi, olingan natijalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlanganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundaki, Fuzuliy she'riyatida badiiy san'atlarni hosil qiluvchi poetik birliklarning ifoda xususiyati, an'anaviylik va novatorlik jihatlarini ochib berish, tazmin va tatabbu'lar tadqiqiga doir ilmiy-nazariy qarashlarni boyitish, qolaversa, adabiyotshunoslikka doir tadqiqotlar doirasini kengaytirish, o'zbek adabiyotiga doir izdoshlik masalasini tadqiq qilish uchun bevosita material sifatida xizmat qilishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati esa oliy o'quv yurtlarining filologiya fakultetlaridagi "O'zbek adabiyoti tarixi", "Qardosh xalqlar adabiyoti", "Adabiyotshunoslikka kirish" o'quv kurslarini takomillashtirishda, ixtisoslashtirilgan umumta'lim maktablari uchun "Adabiyot" fanidan badiiy tasvir vositalari – tatabbu' va tazmin mavzularini mukammal o'qitishda, badiiy san'atlar lug'atini yaratishda muhim ahamiyatga egaligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. O'zbek adabiyotida Fuzuliy ijodiga izdoshlik, tatabbu' va tazmin san'atining o'ziga xos jihatlarini tadqiq qilish bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

O'zbek adabiyotshunosligida ilk marta Muhammad Fuzuliy ijodining manbalari monografik planda tekshirilib, turkiy shoirlar: Lutfiy va Alisher Navoiy she'riyatining Fuzuliy ijodiga ta'siri masalasiga oid ilmiy xulosalardan Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetida 2021–2023-yillarda bajarilgan IZ-2021020813-raqamli "Alisher Navoiy ijodining xorijda o'rganilishi va targ'iboti asosida ko'p tilli multimedia to'plamini yaratish" mavzusidagi amaliy loyihada foydalanilgan (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetining 2024-yil 9-noyabrdagi 01/3194-son

ma'lumotnomasi). Natijada loyiha saviyasi mumtoz adabiyotdagi an'anaviylik, novatorlik masalalariga oid materiallar bilan yuksalgan;

Alisher Navoiyga Fuzuliy va Fuzuliyga o'zbek shoirlari yozgan tazminlar, tatabbu' va taxmislarda an'anaviylikning novatorlikka asos bo'lishi aniqlangan va mumtoz she'riyatda ushbu izdoshlik masalasi tazmin turlarining rivojlanishiga hissa qo'shishiga doir ilmiy xulosalaridan Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetida 2021–2023-yillarga mo'ljallangan PF-201912258-raqamli “O'zbek adabiyotining ko'p tilli (o'zbek, rus, ingliz tillarida) elektron platformasini yaratish” mavzusidagi amaliy loyihada foydalanilgan (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetining 2024-yil 12-noyabrdagi 01/43235-son ma'lumotnomasi). Natijada loyiha doirasida adabiy izdoshlik masalalariga doir materiallar platforma ilmiy saviyasini oshirgan;

O'zbek adabiyotida Fuzuliyga izdoshlik asosida yaratilgan ijod namunalari tatabbu', tazmin va taxmislar asosida xonliklar – Qo'qon, Buxoro va Xiva adabiy muhitlari kesimida ilmiy asoslanganiga oid ilmiy xulosalardan Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetida 2021–2023-yillarga mo'ljallangan PF-201912258-raqamli “O'zbek adabiyotining ko'p tilli (o'zbek, rus, ingliz tillarida) elektron platformasini yaratish” mavzusidagi amaliy loyihada foydalanilgan (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetining 2024-yil 12-noyabrdagi 01/43235-son ma'lumotnomasi). Natijada O'zbek adabiyotida Fuzuliyga izdoshlik asosida yaratilgan ijod namunalari tatabbu', tazmin va taxmislarga doir ilmiy ma'lumotlar elektron platforma materiallarini boyitgan;

XX va XXI asr o'zbek shoirlari (A. Cho'lpon, Z. X. Habibiy, N. Chustiy, E. Vohidov, J. Kamol, D. Ergasheva)ning Fuzuliyga bog'lagan tazminlari, tatabbu' va taxmisleri poetikasiga, Fuzuliyning mashhur “Qurbon o'lam” qo'shig'i matni Fuzuliy qalamiga mansub emasligi, aksincha, u Huzuriy degan XX asr boshlarida yashab, ijod qilgan o'zbek shoiri tomonidan bitilganligiga oid ilmiy xulosalardan “Madaniyat va ma'rifat” telekanalining “Avjida” ko'rsatuvi dasturini tayyorlashda foydalanilgan (O'zbekiston milliy teleradiokompaniyasi “Ma'rifat” ijodiy birlashmasi davlat muassasasining 2025-yil 29-maydagi 15-30/369-sonli ma'lumotnomasi). Natijada ko'rsatuv doirasida adabiy ta'sir masalalari A.Cho'lpon, Z. X. Habibiy, N. Chustiy, E. Vohidov, J. Kamol va D. Ergasheva ijodi misolida ochib berilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 3 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 12 ta ilmiy ish chop etilgan, shundan O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan 8 ta respublika va 4 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Ishning umumiy hajmi 151 sahifani tashkil qiladi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqot maqsadi va vazifalari, obykti va predmeti aniqlangan, tadqiqotning O‘zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalar taraqqiyotining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon etilgan. Olingan natijalarning ishonchliligi asoslangan, ularning nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan. Tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etilishi, ishning aprotatsiyasi natijalari, e‘lon qilingan ishlar va dissertatsiyaning tuzilishi bo‘yicha ma‘lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi **“Fuzuliy ijodi va o‘zbek adabiyoti”** deb nomlangan, uning birinchi paragrafi *“Fuzuliyshunoslik: talqin va tahlil”*ga bag‘ishlangan. Qadimdan Sharq xalqlari orasida o‘tkaziladigan qissaxonlik va she‘rxonlik kechalari o‘ziga xos bir madaniy an‘anaga aylangan. Bu an‘analar doirasida hofizxonlik, navoiyxonlik, fuzuliyxonlik, bedilxonlik kabi adabiy davralar, ayniqsa, mashhur bo‘lgan. Turkiy xalqlar orasida Alisher Navoiy singari Fuzuliy g‘azallari va uning she‘riyati kirib bormagan uy va xonadon deyarli yo‘q hisobi. Fuzuliyning she‘riyati, ayniqsa, g‘azallari va *“Layli va Majnun”* dostoni turkiy xalqlar orasida eng ko‘p tarqalgan va keng o‘qilgan adabiy merosdir.

Fuzuliy o‘zining otashnafas she‘rlari bilan turkiy xalqlar adabiyotida alohida o‘rin egallagan bo‘lib, uning ijodi asrlar davomida turkiy she‘riyat rivojiga katta ta‘sir ko‘rsatgan. Adabiyotshunoslikda Muhammad Fuzuliy haqida bildirilgan dastlabki fikrlar XVII asr boshlariga to‘g‘ri keladi. Xususan, Mutribiy Samarqandiyning 1605-yilda yozib tugallangan *“Tazkirat ush-shuaro”*sida Fuzuliy Bag‘dodiy nomi tilga olinib, uning she‘rlari XVI asr oxiri – XVII asrning boshlaridayoq turkiy mamlakatlarga keng tarqalgani haqida ma‘lumot keltiriladi²⁷.

O‘zbek adabiyotshunosligida Fuzuliy haqidagi akademik tadqiqotlar XX asrdan amalga oshirila boshlangan. Jumladan, bu boradagi ilk tadqiqotchi Vadud Mahmud (1898-1976) bo‘lib, uning 1925-yili yozgan *“Fuzuliy Bag‘dodiy”*²⁸ nomli salmoqli maqolasida buyuk ozarbayjon so‘z san‘atkori suv ichgan chashmalar, ijodining asosiy mavzu va g‘oyalari, tasavvufga munosabati, turkiy adabiyotda tutgan mavqei, o‘zidan keyingi shoirlarga ta‘siri haqida fikr yuritiladi²⁹. Ushbu maqola *“Asarlari”*, *“Fuzuliyning Turkistonga ta‘siri”* kabi kichik bo‘limlardan tashkil topgan. Mazkur maqolada Vadud Mahmudning ilmiy yangiliklardan biri shuki, Alisher Navoiy adabiy maktabining ozar shoirlari, xususan, Fuzuliyga, so‘ngra Fuzuliy adabiy maktabining o‘zbek shoirlariga ta‘sirini dastlab *“sharq turkchasi”*ning *“g‘arb turkchasi”*ga, keyin esa aksincha, *“g‘arb turchasi”*ning *“sharq turkchasi”*ga ta‘siri deya ifodalaydi.

²⁷ Алишер Навоий ва Муҳаммад Фузулий: ўзбек-озарбайжон адабий алоқалари масалалари. Улуслараро конференс материаллари. – Т., 2024. – Б. 14.

²⁸ Махмуд В. Фузулий Бағдодий // Маориф ва ўқитувчи, 1925 йил, 4-сон.

²⁹ Алишер Навоий ва Муҳаммад Фузулий: ўзбек-озарбайжон адабий алоқалари масалалари. Улуслараро конференс материаллари. – Т., 2024. – Б. 14.

Fuzuliyga murojaat qilish, uning ijodini ma'lum darajada tadqiq etish yana bir jaded ijodkori Abdulla Qodiriy asarida ham ko'zga tashlanadi. "O'tkan kunlar" va "Mehrobdan chayon" romanlarida Fuzuliy she'riyati va uning ta'siri, ayniqsa, shaxsiyatlar va ma'naviyatga bo'lgan e'tibor orqali namoyon bo'ladi. Ushbu asarlardan keltirilgan misollar Fuzuliy lirikasi nafaqat adabiyot olimlari yoki san'at ixlosmandlari uchun, balki keng xalq ommasini uchun ham ahamiyatli bo'lganligini ko'rsatadi. Erk kuychisi Abdulhamid Sulaymon o'g'li Cho'lponning ijodiga ham Fuzuliyning bevosita ta'sirini uning "Klassik shoirlar orasida Fuzuliy o'zining samimiyligi, ko'nglidan olib yozishi bilan ajralib turadi"³⁰, deya qayd etganidan ham bilishimiz mumkin. Adabiyotshunos D.Quronovning yozishicha, Cho'lpon Fuzuliyning shunchaki mumtoz adabiyotning yetuk vakili sifatida emas, balki adabiy ruhdosh sifatida qabul qilgan³¹. Shu sababdan ham "Yorqinoy" dramasi Fuzuliy devonidan bir baytni epigraf qilib tanlagan:

*"Vodiyi vahdat haqiqatda maqomi ishqdir,
Kim mushaxxas o'lmaz ul vodiyda sultondin gado".*

O'zbekistonda fuzuliyshunoslik sohasida alohida faoliyat ko'rsatgan olimlardan biri akademik V. Abdullayev bo'lib, olim o'zining fundamental tadqiqotlari orqali Fuzuliy ijodining o'zbek adabiyotiga ta'sirini o'rganishga katta e'tibor qaratgan. Xususan, uning ilmiy ishlari Fuzuliyning poetik uslubi, falsafiy dunyoqarashi va o'zbek mumtoz adabiyoti bilan bog'liqligini yoritishga bag'ishlangan.

Fuzuliy merosini o'rganishda muhim hissa qo'shgan yana bir olim H.Muhammadxo'jayevdir. Uning 1972-yilda yozilgan "Fuzuliy va o'zbek adabiyoti" nomli dissertatsiyasida Muhammad Fuzuliyning Yaqin va O'rta Sharq xalqlari she'riyatiga ko'rsatgan ta'siri, O'zbekistonda Fuzuliy ijodiy maktabining shakllanish jarayoni ilmiy asosda tadqiq etilgan.

Bobning ikkinchi paragrafi "*O'zbek adabiyotining Fuzuliy ijodiga ta'siri masalasi*"ga bag'ishlangan. Ma'lumki, adabiy ta'sir – bu turli adabiy asarlarning bir-biriga ta'siri, ijodkorlar o'rtasidagi bog'liqlik va adabiy merosning keyingi avlodlarga yetib borish jarayonidir. Bu jarayon adabiyot taraqqiyotida muhim ahamiyat kasb etadi va har bir davr adabiyoti oldingi davrlar bilan uzviy bog'liq bo'lgan holda shakllanadi. Turk adabiyotshunosi Fuad Ko'pruluzoda adabiy ta'sir masalasini turkiy xalqlar adabiyotining rivojlanishida muhim omil sifatida ko'rsatib, "Har bir milliy adabiyot boshqa adabiyotlar bilan o'zaro ta'sir orqali shakllanadi va yetuklikka erishadi"³² deb qayd etgan bo'lsa, amerikalik adabiyotshunos Harold Bloom har bir ijodkor oldingi buyuk adiblar ta'siridan chiqishga harakat qiladi hamda shu jarayonda yangilik yaratadi, deb hisoblaydi. Unga ko'ra, "Haqiqiy ijodkorlik oldingi ijodkorlar bilan kurashishdan iborat"³³.

Muhammad Fuzuliy benazir ijodi bilan o'zidan keyingi turkiy adabiyot vakillari, shuningdek, o'zbek mumtoz she'riyati namoyandalariga katta ta'sir

³⁰ Чўлпон. Адабиёт надири. – Т.: Чўлпон, 1994. – Б. 166.

³¹ Quronov D. Fuzuliy Cho'lpon nigohida // Turkiy xalqlar adabiyoti: adabiy ta'sir va tarjima masalalari. Ilmiy-amaliy anjuman materiallari. – T., 2024. – B. 111–117.

³² Ko'pruluzoda F. Turk edebiyatında ilk mutasavvıflar. – Istanbul: Istanbul Üniversitesi Yayınları, 1931.

³³ Bloom H. The Anxiety of Influence: A Theory of Poetry. – Oxford: Oxford University Press, 1973.

ko'rsatganining "sir"i – uning o'zigacha bo'lgan so'z daholari: Jaloliddin Rumi, Hofiz Sheroziy, Nizomiy, Nasimiy, Lutfiy, xususan, Alisher Navoiy adabiy merosini chuqur bilganligi, asrlar silsilasida kelayotgan adabiy an'analarga noyob iste'dodi bilan sayqal berib, o'ziga xos tarzda davom ettirganligidadir.

Ta'kidlash joizki, o'zbek adabiyoti Fuzuliy ilhomlangan asosiy sarchashmalardan biridir. Ozarbayjon shoiri o'zbek adabiyotining Lutfiy va Alisher Navoiy kabi ijodkorlari asarlaridan ta'sirlangan. U **Lutfiyning**:

*Ey azaldan to abad ko'nglim giriftoring sening,
Chora qilkim, bo'ldi jonim asru g'amxoring sening,*

deb boshlanuvchi g'azaliga taxmis bog'lagan. Agar Lutfiyning lirik qahramoni o'z ko'nglining ma'shuqqa "azaldan to abad" – yerda hayot boshlangandan cheksizlik qadar "giriftor" – muhtalo bo'lganini va shu bois uning joni "asru g'amxor" – juda g'am chekkani uchun bir chora qilishini iltijo qilsa, taxmisdan Fuzuliy "azal" va "abad" so'zlariga yanada jilo berib, "subhi azal" – azal tongi va "shomi abad" – adabiyat shomi degan forsiy izofalarni ustalik bilan qo'llab yorga shunday dil izhor qiladi:

*Jondadur subhi azaldan mehri ruxsoring sening,
No'la to shomi abad o'lsam talabgoring sening,
Emdi jona topmamish ming oshiqi zoring sening...*

Fuzuliyning **Navoiy** g'azaliga bitgan tatabbu'si turkiy adabiyotda avlodlararo bog'liqlikning yorqin namunasidir. Agar Alisher Navoiyning "Xazoyin ul-maoniy" kulliyoti:

"Ashraqtat min aksi shamsil-ka'si anvorul-xudo,

"Yor aksin mayda ko'r" deb, jomdin chiqdi sado"³⁴ g'azali bilan boshlansa, Fuzuliyning devonidagi birinchi g'azal:

"Qad anor al-ishqa lil-ushshoqi minhoj al-xudo,

Soliki rohi haqiqat ishqa aylar iqtido"³⁵ bayti bilan ibtido topadi.

Fuzuliyning "Besh emas"³⁶ radifli tatabbu'sida esa Navoiy qo'llagan poetik timsollar yangi ijtimoiy mazmun bilan boyitiladi. Bu kabi holatlar adabiy merosning davomiyligini va shoirlarning o'z salafalaridan ta'sirlangan holda yangi badiiy shakllar yaratganini ko'rsatadi. Umuman, Fuzuliy o'z ijodiy kamolotida Navoiy merosidan keng ta'sirlangan bo'lib, bu nafaqat tatabbu' g'azalining badiiy jihatlarida, balki umumiy adabiy qarashlarida ham aks etadi. Har ikki shoir g'azallarida inson umrining o'tkinchiligi, dunyo va oxirat orasidagi munosabat, boyluk va unga mag'rurlikning salbiy oqibatlarini bilan bog'liq chuqur falsafiy fikrlar bayon qilingan. Fuzuliy bu g'oyalarni Navoiyning baytlariga tayanib, o'ziga xos badiiy ifoda bilan kengaytirgan.

Dissertasiyaning ikkincha bobi "**Buxoro va Xiva shoirlari ijodida Fuzuliyga izdoshlik**" deb nomlangan. Uning birinchi paragrafi "*Fuzuliy*

³⁴ Аlisher Navoiy. Тўла асарлар тўплами. Ўн жилдлик. Биринчи жилд. Фаройиб ус-сиғар. – Т.: Фафур Фулом, 2011. – Б. 22.

³⁵ Ма'носи: Ishq oshiq'larga to'g'ri yo'lni ko'rsatadi, Haqiqat yo'liga kirganlar ishqa ergashadilar.

Очилов. Э. Фузулий Муҳаммад. Қалб гавҳари. – Т.: Ҳилол-нашр, 2014. – Б. 23.

³⁶ Mazkur so'zning biz o'rganayotgan g'azaldagi ma'nosi "ko'p, ortiq, ziyoda"ni anglatadi. Qarang: O'zbek tilining izohli lug'ati. Birinchi jild. – Т.: O'zbekiston, 2020. – Б. 245. Ammo ba'zi baytlar "ko'p" ma'nosida emas, balki mazmun nuqtayi nazaridan kelib chiqib sharhlandi.

she'rlariga bitilgan tazminlar” haqidadir. Muhammad Fuzuliy ijodi o‘zbek adabiyotidagi Buxoro, Xiva va Qo‘qon adabiy muhitiga o‘zining kuchli ta’sirini ko‘rsatgan. O‘zbek she’riyatining juda ko‘p atoqli namoyandalari uni ishqiyl g‘azallar yaratishda hassos san’atkor deb bilib, asarlariga tazmin bog‘laganlar. Ma’lumki, “Tazmin (ar. bir narsani ikkinchi narsa orasiga qo‘ymoq) – she’rda o‘zga bir shoir she’ridan bir misra yoki bir bayt kiritish san’ati. Tazmin san’atining nomi dastlab Umar Roduyoniyning “Tarjumon ul-balog‘a” asarida (XI asr) uchraydi. Muallif tazmini ikki nuqtai nazardan talqin qiladi: 1) avvalgi baytning mazmunini keyingi baytda keltirishga asoslangan san’at; 2) she’rda o‘zga shoir bayti va ushbu bayt muallifini keltirishga asoslangan san’at. Roduyoniydan keyingi forsiyl manbalarda asosan ikkinchi talqinga diqqat qaratiladi. Husayn Voiz Koshifiyning “Badoe’ ul-afkor fi sanoe’ ul-ash’or” asarida tazmin san’ati ikki guruhga ajratiladi: 1) tazmini musarrah – misra yoki bayti keltirilayotgan muallif nomi ko‘rsatilgan tazmin; 2) tazmini mubham – muallif nomi keltirilmagan tazmin. Shuningdek, Koshifiy tazminning taxmis va tasdis turlari haqida ham ma’lumot keltiradi”³⁷.

XVIII asrda yashagan Xorazm va Buxoro adabiy muhitining (Nishotiy asli Xorazmda tug‘ilib, bir muddat u yerda yashagan bo‘lsa-da, xonlikdagi siyosiy ahvol og‘irligi tufayli Buxoroga kelgan) yorqin namoyandalaridan biri, mashhur “Husn-u Dil” dostoni muallifi **Muhammadniyoz Nishotiy** ijodida Fuzuliyga tazminnavislik, ya’ni taxmis bog‘lash holatlarini uchramiz. Fuzuliy g‘azali 10 baytdan iborat bo‘lib, unda asosan ijtimoiy adolatsizlikdan shikoyat qilish ruhi ustuvor. Shu bois Nishotiy g‘azal tarkibidan ko‘ngliga yaqin bo‘lgan ishqiyl ma’nodagi 5 ta baytni tanlab, taxmis bog‘lagan bo‘lishi mumkin. Shuningdek, g‘azal ramali musammani mahzuf (Foilotun, foilotun, foilotun, foilun) vaznida yozilgan bo‘lib, bog‘langan taxmisda ham aynan shu vaznga qat’iy rioya qilingan.

Taxmisning birinchi bandi quyidagicha:

Aql – ma’dum, hush – nodonu xirad – norahnomun,

Ishq – g‘olib, shavq – muxlik, betarahhum – charxi dun,

Yor – g‘ofil, dard – mushkil, hajr – qotil, ashk – xun,

Do’st – beparvo, falak – berahm, davron – besukun,

*Dard – cho‘x, hamdard – yo‘q, dushman – qaviy, tole’ – zabun*³⁸.

Fuzuliy g‘azalining matla’idagi lirik qahramon do’stning beparvoligi, “falak” – taqdirning berahmligi, davron, ya’ni zamonning besukun aylanishi, ko‘ngildagi dardning kuchliligi, hamdardning yo‘qligi, boz ustiga dushmanning qudratliligi, tole’ – baxtning ojizligidan zada bo‘lgan, muhitdan norozi shaxsday arz qilsa, Nishotiyning lirik qahramoni “aql” – intellekti, “hush” – hushyorligi, “xirad” – donishmandligidan asar qolmagan, ko‘ngli ishqqa mag‘lub bo‘lgan, halokatli visol shavqiga duchor, rahmsiz dunyo, g‘ofil yor, mushkul dard, qotil hijronga mubtalo, qonli yosh to‘kayotgan oshiqday faryod chekadi.

Yuqoridagi bandda taxmis misralari o‘z badiiyati bilan ham o‘quvchi diqqatini o‘ziga tortadi. Unda qo‘llangan qator she’riyl san’atlar taxmis muallifi g‘azal uslubini to‘la saqlab qolishga muvaffaq bo‘lganligidan dalolat beradi.

³⁷ Алишер Навоий комусий луғати. Иккинчи жилд. – Т.: Шарқ, 2016. – Б. 12–13.

³⁸ Нишотий М. Танланган асарлар. – Т.: Бадий адабиёт, 1960. – Б. 75–76.

Masalan, gʻazal matlaidagi “Doʻst – beparvo, falak – berahm, davron – besukun...” va unga bogʻlangan “Aql – maʼdum, hush – nodonu xirad – norahnomun...” singari satrlarda ham bogʻlovchisiz kelgan qoʻshma gaplar ketma-ketlik, tadrijiylik asosida fikrni yuzaga chiqargani uchun teʼdod sanʼati qoʻllanilgani yaqqol koʻrinadi. Qayd etish joizki, Nishotiy taxmis tarkibidagi yana ikki badda ushbu sanʼatga takror murojaat qilgan. Shu bilan birga, birinchi misrada “aql”, “hush”, “xirad”, ikkinchi misrada “ishq”, “shavq”, uchinchi misrada “yor”, “dard”, “hajr”, “ashk” (Nishotiyga tegishli), toʻrtinchi misrada “falak”, “davron” (Fuzuliyga tegishli), “charxi dun” (ikkinchi misrada, Nishotiyga tegishli), beshinchi misrada “dard”, “hamdard” (Fuzuliyga tegishli) soʻzlari maʼnaviy bogʻliqligi nuqtai nazaridan tanosub sanʼatini, uchinchi misradagi “gʻofil”, “mushkil”, “qotil” (Nishotiyga tegishli), beshinchi misradagi “choʻx”, “yoʻq” soʻzlari (Fuzuliyga tegishli) ichki qofiyani, toʻrtinchi misradagi “doʻst” bilan beshinchi misradagi “dushman”, “qaviy” (kuchli) bilan “zabun” (ojiz, yengilgan – Fuzuliyga tegishli) soʻzlari tazod sanʼatini hosil qilgan.

Bu davr adabiyotining yana bir vakili **Munis** Fuzuliyning 2 ta gʻazaliga, yaʼni “Oʻlmaz” va “Etdigumdandur” radifli gʻazallariga yetuk badiiyat va yuksak adabiy did bilan taxmis bogʻlab, oʻzbek hamda ozarbayjon xalqlari oʻrtasidagi koʻp asrlik mushtarak adabiyot xazinasini yana bir durdona asar bilan boyitishga muvaffaq boʻlgan. “Fuzuliy asarlariga bogʻlangan nazira va muxammaslar koʻrsatadiki, Munisni uning shirali va rangin kalomi, joʻshqin, ayni paytda, sodda uslubi, jozibali va taʼsirchan ifodalari koʻproq maftun etgan”³⁹.

Muhammadrizo Erniyozbek oʻgʻli – Ogahiy XIX asr Xorazm adabiy muhitining yirik siymolaridan biri boʻlib, Navoiydan keyin eng “koʻp va xoʻb” sheʼr aytgan shoirlardandir. “Sharq sheʼriyati maktabidan puxta taʼlim olgan Ogahiyning koʻpchilik taxmislarida asosan 4 yirik siymo Navoiy, Munis, Feruz, Fuzuliy sheʼriyatiga boʻlgan qiziqishning kuchliligi va ularning taʼsir doirasi kengligining guvohi boʻlamiz”⁴⁰.

Ogahiy devonini varaqlar ekanmiz, uning ijodiyotida navoiyona tashbehlar, unsurlardan foydalanish bilan birga fuzuliyvor ifodalardan ham joyi kelganda unumli istifoda etilganini kuzatishimiz mumkin.

Masalan, Fuzuliyning:

Parishon holing oʻldim, soʻrmading holi parishonim,

Gʻamingdan darda dushdim, qilmading tadbiri darmonim,

Na dersan, roʻzgorim boʻylami kechsin, goʻzal xonim,

*Koʻzim, jonim, afandim, sevdigim, davlatli sultonim,*⁴¹ degan murabbaʼsiga

Ogahiy tatabbuʼ tarzida quyidagi sheʼrini bitgan:

Jamoling shavqida yoqti falakni oʻtligʻ afgʻonim,

Bori yer yuzini toʻfongʻa berdi chashmi giryonim,

Eshit dodimni emdi darding oʻldi qosidi jonim,

*Nigorim, mehribonim, mukrimat taxtida sultonim*⁴².

³⁹ Жумаев Н. Мунис ғазалиёти. Бадий маҳорат масалалари. – Т.: Ғафур Ғулум, 1991. – Б. 142.

⁴⁰ Халлиева Г. Огаҳий мусамматлари. – Т.: Mumtoz soʻz, 2019. – Б. 89.

⁴¹ Фузулий М. Асарлар. Икки жилдлик. Биринчи жилд. Девон. – Т.: Ғафур Ғулум, 1968. – Б. 343.

⁴² Огаҳий М. Сарв қомат кўрмишам. Девон. – Т.: Янги аср авлоди, 2007. – Б. 58.

Mazkur murabba' "shoir umrining nisbatan keyingi davrlarida yaratilgan bo'lib, orifona talqinning ustunligi bilan ajralib turadi"⁴³.

Ta'kidlash joizki, Ogahiyning ijodiy quvvati uning boshqa ijodkorlar bilan she'riy bahsga kirishishi – taxmislar bog'lashida yaqqol namoyon bo'ladi. Uning "o'zga shoirlar g'azallariga bog'lagan muxammaslari 79 ta bo'lib, ular orasida Navoiy (33 ta), Munis (7 ta), Feruz (10 ta) va Fuzuliy (8 ta) baytlariga hamohang yaratilgan taxmislar"⁴⁴ alohida ahamiyat kasb etadi.

Fuzuliy ta'sirida bitilgan taxmislardan biri:

Qobili diydor agar ahli jamol aylar mani,

Yuzlarining ko'zgusi to'ti misol aylar mani,

Garchi xo'blar suvrati sohib maqol aylar mani,

Hayrat, ey but, surating ko'rducha lol aylar mani,

Surati holim ko'ran surat xayol aylar mani, degan band bilan boshlanadi.

Taxmis uchun asos bo'lgan g'azal 7 baytdan iborat bo'lib, Ogahiy ularning barchasiga taxmis bog'lashga muvaffaq bo'lgan.

Shuningdek, ushbu paragrafda **Ravnaq** va **Avaz O'tar** taxmisleri ham tahlilga tortilib, Ravnaqning Fuzuliyga bog'lagan taxmisida ishqiy-tasavvufiy mazmun ustunlik qilishi, Avaz O'tarning Fuzuliy g'azaliga bitilgan muxammasida esa ijtimoiylik ruhi hukmronligi kuzatildi.

Bobning 2-paragrafi "*Tatabbu'navislik – Fuzuliyga izdoshlikning yorqin namunasi sifatida*" deb nomlangan. Jahon va milliy adabiyotimiz tarixiga nazar solsak, eng durdona asarlar ham qaysidir noyob asar ta'sirida yozilganini ko'p kuzatishimiz mumkin. Ulug' so'z san'atkorlari hamisha o'zigacha va zamondosh bo'lgan ijodkorlarning ijod namunalaridan bahra olganlar, yutuqlarini o'zlashtirib, ergashganlar, bir so'z bilan aytganda, buyuklik cho'qqisiga chiqishda bir-birlariga "yelka tutganlar" – "pillapoya" bo'lganlar.

Mumtoz adabiyotda mana shunday o'zaro "yelka tutish" – adabiy ta'sir degan tushunchaga uyg'un keladi. Aniqroq aytsak, bir yetuk g'azal ta'sirida bir nechta g'azal, muxammas, musaddaslar paydo bo'lganiga talaygina misollar keltirish mumkin. Masalan, "1240-yilda tug'ilib, XIV asrning 20-yillarida vafot etgan Yunus Emroning "Ustina" radifli mashhur hikmati bor. Oradan bir asr o'tib, Mavlono Lutfiy "Ustina" radifli 2 ta g'azal bitadi. Shuning ta'sirida o'zbek she'riyatida hozirgacha Husayniy (3 ta g'azal), Navoiy (2 g'azal, 1 musaddas), Ogahiy, Mullo Mahmud Hoyibiy, Uvaysiy, Feruz, Niyoziy, Jamol Kamol, Hamid Nasrullayevlarning she'rlari yuzaga kelgan"⁴⁵.

Mazkur "Ustina" nomli radif qancha ijodkorlar bisotida "sayyor" bo'lgan bo'lsa, Muhammad Fuzuliyning "Kerakmazmu sango" radifli g'azaliga ham o'nlab shoirlar, xususan, Xiva va Qo'qon adabiy muhitining yorqin namoyandalari – **Shermuhammad Munis**, **Muhammarizo Ogahiy** va **Amir Umarxon** – Amiriylar tatabbu' bitganlar. "Tatabbu' (ar. biror narsaning izidan borish; kuzatish) – o'zga bir shoir she'ridan ta'sirlanib, undagi vazn, qofiya va radifni saqlagan holda asar yaratish. Nazira, o'xshatma va javobiya deb ham aytiladi. Tatabbu' Musulmon

⁴³ Халлиева Г. Юқоридаги асар. – Б. 40.

⁴⁴ Халлиева Г. Огаҳий мусамматлари. – Т.: Mumtoz so'z, 2019. – В. 140.

⁴⁵ Марғилоний И. М. Кўйинг ичра васлинг истаб. Тахмислар. – Т.: O'zbekiston, 2022. – Б. 4.

Sharqi adabiyotida adabiy aloqa va o‘zaro ta’sirning keng tarqalgan shakllaridan bo‘lib, salafar yoki zamondosh shoirlar bilan muayyan tarzda o‘zaro ijodiy musobaqaga kirishish bilan bog‘liq an’ana hisoblangan. Bunda musobaqalashayotgan shoir biror asarga javob bitar ekan, unga ijodiy yondashishi, tanlagan mavzu, vazn va qofiya doirasida yangi fikr ayta olish imkoniyatiga ega bo‘lishi talab qilingan”⁴⁶. Tatabbu’lar adabiyotlarning o‘zaro adabiy aloqalari rivojida muhim o‘ringa ega bo‘lib, xalqlarni bir-biriga yaqinlashtirgan. G.Neupokoyevaga ko‘ra, “hech bir adabiyot boshqasiga tayyor ijodiy yechimlarni bera olmaydi, lekin ayni paytda hech bir adabiyot unga tarixiy jihatdan ahamiyatli va zarur bo‘lgan tashqi ijodiy tajribani e’tiborsiz qoldirolmaydi”⁴⁷. Shu ma’noda tatabbu’navislik adabiy aloqalar sohasida tarixiy ehtiyoj va tajriba almashish maydoni sifatida muhim ahamiyatga ega bo‘lgan.

Asos g‘azal va naziralar orasida “aylanib” yurgan obrazlar – “samovot” va “oh” obrazlariga diqqat qaratsak. Fuzuliyning lirik qahramoni “Ey, osmon, quyoshingga ayt, yonib turgan jonimni qizdirmasin. Aks holda, ohim chaqmog‘i chaqilsa, u tugul, dunyoni kulga aylantirishi mumkin” degan ma’noni shunday ifodalaydi:

*Yondirib jonim, jahonso ‘z etma barqi ohimi,
Osmon, xurshidi raxshoning kerakmazmi sango?*

Munis esa “Ey, gardun – osmon, mening ohimni (kuchli shamolday) tezlatma, yo‘qsa, u quyoshningning mash’alini o‘chirib qo‘yishi mumkin” deb quyidagicha yozadi:

*Sarsari ohimni, ey gardun, qilursan tundu tez,
Mash’ali xurshidi raxshoning kerakmasmu sanga?*

Ogahiy g‘azalida bu obrazlar uchramaydi. Amiriy esa o‘z tatabbu’sining bir emas, **ikki baytini** – 5- va 8-baytlarini shu obrazlar talqiniga bag‘ishlaydi:

*Javr aylab, kechalar yondurma ohim o‘tini,
Ey falak, bu qasru ayvoning kerakmasmu sango?(5-bayt)*

*Barqi ohim anjuming jam’iyatin aylar taboh,
Javr etarsan, charx, osmoning kerakmasmu sango?! (8-bayt)*

Amiriy Fuzuliy qo‘llagan “osmon”dan ayro holda “charx” deb taqdiri azalni nazarda tutadi. Amiriy tatabbu’sining hajmi Fuzuliy g‘azaliga nisbatan 2 bayt ko‘p, ya’ni 9 baytdan iborat bo‘lib, unda ham asosan tajohuli orif va nido san’atidan foydalanilgan. Amiriy Fuzuliyning asos g‘azali, unga bog‘langan Munis, Ogahiyning tatabbu’laridagi o‘zaro ko‘chib yurgan obrazlar – “ko‘ngil” va “jon” obrazlaridan voz kechib, Amiriy talqinida jon ishq iztirobidan emas, rashk azobidan chiqishi bayon etiladi.

Dissertatsiyaning uchunchi bobi “**Qo‘qon adabiy muhiti va yangi o‘zbek adabiyotida Fuzuliy an’analari**” deb nomlangan. Uning birinchi paragrafi “*Naziralarda adabiy an’ana va ijodiy yangilanish*” haqidadir. Ma’lumki, har qanday ijodkor o‘z adabiy faoliyatining shakllanish bosqichida ustoz

⁴⁶ Алишер Навоий қомусий луғати. Иккинчи жилд. – Т.: Шарқ, 2016. – Б. 31.

⁴⁷ Неупокоева И.Г. История всемирной литературы. Проблемы системного и сравнительного анализа. – М.: Наука, 1976. – С. 85.

ijodkorlarning muayyan qirrasidan ta'sirlanadi va bu ta'sir yosh shoir yoki adibning kelgusida ijodiy fardiyat (individuallik)ga erishishida muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Chinakam iste'dod egasi hatto keyinchalik ustoz ijodkorlar bilan ijodiy musobaqaga kirishish darajasiga ham ko'tarila oladiki, bu holat mumtoz adabiyotimiz tarixida bitilgan ko'plab naziralarda o'z ifodasini topgan.

Ta'kidlash joizki, "adabiy aloqalar vositasiz va vositali aloqalarga ajratiladi. To'g'ridan-to'g'ri aloqalar o'zga adabiyot namunalari bilan hech qanday yordamchi vositalarsiz munosabatda bo'lishni taqozo etadi. Bunda faqat asl (original) matnga murojaat qilinadi. Qabul qilayotgan va qabul qilinayotgan tomonlarning vositasiz aloqalari tadqiqotchiga adabiy munosabatlar xarakterini to'g'ri baholash imkonini beradi"⁴⁸. Shu ma'noda turkiy xalqlar adabiyoti tarixida keng o'rin tutgan naziralarga adabiy aloqalarning vositasiz shakli sifatida qaralishi mumkin.

Boborahim Mulla Vali (Valibobo) o'g'li **Mashrab** (1640–1711) qo'nimsiz hayoti davomida ruhiy hurlik bobida Mansuri Xalloy va Imomiddin Nasimiylar bilan hammaslak bo'lib, ular ilgari surgan isyonkor tuyg'ularga hamohang g'oyalarni o'z she'rlarida badiiy ifoda qildi, she'r san'atini tugal egallashda turkiy so'z darg'alari – Lutfiy, Navoiy va Fuzuliylarni o'ziga ustoz deb bildi. Ularga ergashib, o'ziga xos durdona asarlar yaratdi. Mashrab devonini varaqlar ekanmiz, bu borada ko'plab yorqin misollarni ko'rishimiz mumkin. Masalan, Ozarbayjonda "Fuzuliy kantatasi"⁴⁹ nomi bilan mashhur bo'lgan.

Mani jondan o'sondirdi, jafodan yor o'sonmazmi,

*Falaklar yondi ohimdan, murodim sham'i yonmazmi?*⁵⁰,

deb boshlanuvchi g'azaliga o'g'uz lahjasida ushbu matla' bilan boshlanuvchi nazira-g'azalni yozgan:

Na savdolar boshda solding, bu savdolar tunganmazmu,

Ki band etting ayog'larni, yana bandlar yozilmazmu?

Fuzuliy g'azalining "... Uyodur xalqi afg'onim, qaro baxtim uyonmazmi?" degan misrasida lirik qahramon shu darajada kuchli nola-fig'on qilganidan xalq uyqusini harom qilishini, lekin shu kuchli "shovqin"dan negadir o'zining uyqulik qora baxti uyg'onmasligini bayon qiladi.

Umarxon Amiriy o'ziga Navoiydan keyingi ikkinchi ustoz sifatida ozarbayjon xalqining buyuk shoiri Fuzuliyi tan olgan va unga ergashib, bir qator yetuk tatabbu' va taxmislar bog'lashga muvaffaq bo'lgan. O'z g'azallarida "bengzatdim", "ayduqcha", "cho'x", "vor", "do'ndirmish" singari ozariy so'zlardan unumli foydalangan Amiriyy "tut" radifli nazirasida Fuzuliyga ergashadi.

Agar Fuzuliy:

Ey, asiri domi g'am, bir go'shai mayxona tut!

*Tutma zuhhoding muxolif pandini, paymona tut*⁵¹,

deb yozgan bo'lsa, Amiriyy o'z tatabbu'sini shunday boshlaydi:

⁴⁸ Qosimov A., Hamroqulov A., Xo'jayev S. Qiyosiy adabiyotshunoslik. – T.: Akademnashr, 2019. – B. 59.

⁴⁹ Fuzuliyning "Mani jondin o'sondirdi..." nomli g'azaliga 1959-yilda atoqli ozarbayjon bastakori Jahongir Jahongirov tomonidan bastalangan qo'shiq ilk bor Ozarbayjon xalq artisti Shovket Alikbarova tomonidan ijro qilingan.

⁵⁰ Фузулий Мухаммад. Куллиёт. Икки жилдлик. Биринчи жилд. – Т.: Niso MNU, 2024. – Б. 292.

⁵¹ Фузулий М. Қалб гавҳари. – Т.: Ҳилол-нашр, 2014. – Б. 60.

*Ey, xarobi chashmi maxmuring ko'ngil, paymona tut,
Bir qadah la'ling zakotidin berib, mastona tut.*

Fuzuliy g'azali avval dunyo g'amiga duchor insonga xitob bilan boshlanib, yorga arzi hol qilish bilan davom etgan va so'nggi baytlardagi fikr miqyosi ishqiy mazmundan ijtimoiy-falsafiy mazmunga ko'tarilgan bo'lsa, Amiriy tatabbu'sida asosan ozarbayjon shoirining ishqiy mazmunda qo'llagan g'oyalarni rivojlantirishga e'tibor qaratilgan.

Bu davr adabiy muhitining yetuk namoyandalaridan bo'lgan **Muhammad G'oziy** Fuzuliyning "Etmisham", "Etogin" radifli g'azallariga taxmis, "Qilmaz" g'azaliga esa nazira bog'lagan. Fuzuliy g'azali:

*"Nami ashkim mukaddar xotirimdan daf'i g'am qilmaz,
Bu ravshandurki, nam oyinadan zangor kam qilmaz,*

bayti bilan ibtido topadi. G'oziy esa nazira g'azalini shunday misralar bilan boshlaydi:

*"Ko'ngil ko'rgach yuzingni mayli gulzori Iram qilmaz,
Na gulzori iram, yodi guli firdavs ham qilmaz.*

